

Mavzu: Ona tilim – milliy iftixorim*

Aa Vatanisiz inson –
kuysiz bulbul.

Vatan

LUG'AT

* *iftixor* – faxr, g'urur hissi



1-mashq. Savollarga javob bering.

1. Onangiz alla aytganini eshitganmisiz?
2. Vatan deganda nimani tushunasiz?
3. Biz qaysi tilda muloqot qilamiz?
4. Bizning Vatanimiz qayer?
5. Siz qaysi shahar yoki qishloqda yashaysiz?
6. Vatanni nima uchun sevamiz?
7. Vatanimiz tabiati haqida nimalarni bilasiz?
8. Vatan haqida qanday she'r yoki maqol yodingizda?
9. Kelajakda Vatan uchun qanday foydali ishlar qilmoqchisiz?



2-mashq. Maqollarning davomini mazmunan moslashtiring. Husnixat bilan ko'chiring.

Tilga e'tibor –

jon-u dilim.

Ona tilim –

millat bor.

Til bor –

o'zini hurmat qiladi.

Tilini hurmat qilgan –

elga e'tibor.

- Maqollarni izohlang.



Ona tili nafaqat muloqot vositasi, balki millatning ruhi va tarixidir. O'zbek adabiy tili asoschisi sifatida Alisher Navoiy e'tirof etiladi. U o'zining boqiylikka daxldor asarlari bilan o'zbek tilini yuksak adabiy til darajasiga ko'tarib, uning turkiy tillar orasidagi beqiyos jozibasi va cheksiz imkoniyatlarini butun dunyoga namoyon etdi. Ushbu bebaho meros hamon barhayotdir.



3-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'yib ko'chiring.

Ona tilim

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdim-u bo'lak ishni qotirmadim.
... turib o'z ...da gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,
Ona ..., kechir meni, ona

Muhammad Yusuf



4-mashq. Quyidagi hikmatli so'zlarni husnixat bilan ko'chiring.

Ko'ngil daryosining gavhari tildir,
Til gavhardan afzal, martabasi ulug'dir.

Alisher Navoiy

Boshingga qilich kelsa ham rost so'zla.

Amir Temur

Yaxshi so'z – ko'ngil podshosi.

Mirzo Ulug'bek



- Buyuk allomalarimizning hikmatli o'gitlarini yod oling.